

¹Safarova Dilfuza ² Mo‘minova Dilrabo

Samarqand Davlat vetirinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali “Iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida katta o‘qituvchisi assistenti
[*dilsafarova1975krasotka@gmail.com*](mailto:dilsafarova1975krasotka@gmail.com).

Annotatsiya. Maqolada kichik biznesni kreditlash va unda xorij tajribasining asoslari o‘rganilgan. Mazkur masalaga olim va mutaxassislarning fikirlari tadbiq etilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: kichik biznes, kreditlash, foizlar, daromad, rentabellik.

Аннотация. В статье исследуются особенности, теоритические основы зарубежного опыта кредитования малого бизнеса. Предложены разработки учёных и специалистов по поводу кредитования.

Ключевые слова: малый бизнес, кредитования, проценты, доход, рентабельность.

Key words: small business, pitching, percent, income, profitability

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini o‘shish nuqtalaridan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi aholi bandligini ta’minlashning muhim manbaidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13-oktyabrdagi PQ - 4862-son “Axolini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishning doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorning qabul qilinishi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yana bir rag‘bat deyish mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar asosiy yoʻnalishlardan biri etib tadbirkorlik subʼekklarini banklar tomonidan kreditlar asosida moliyaviy qoʻllab-qoʻvvatlash hisoblanadi.

2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼekklarini kreditlashni yanada kengaytirish” vazifasi belgilangan.

Mamlakatimizda kichik biznes subʼekklarini kreditlash borasida barcha toʻsiqlar olib tashlanmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi biznes yoʻritish boʻyicha 69-oʻrinni, kreditlash boʻyicha Jahon bankining “Doing business” koʻrsatkichlariga koʻra 190ta davlat orasidan 67 oʻrinni egallaganligi ham bu boradagi ishlarimizning qanchalik rivojlanayotganidan dalolat beradi. Barqaror iqtisodiy oʻsish, bandlikni yaratish, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kambagʻallikni qisqartirish muhim rol oʻynaydi.

Kichik va oʻrta biznes korxonalari dunyoda mavjud firmalarning 90 foizini tashkil etadi. Xalqaro Valyuta fondi va McKinsey&Company xalqaro konsalting kompaniyasi bilan birgalikda olib borgan tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, dunyo boʻyicha jami rasmiy va norasmiy mikro, kichik va oʻrta korxonalar 420-510 millionni tashkil etishini, shundan 365-445 milliongacha boʻlgan firmalar rivojlangan davlatlarda joylashganini tadqiq etishdi.

Bangladesh davlati “Grameen Bank” asoschisi, Nobel mukofotining sohibi, taniqli iqtisodchi olim M.Yunus tadbirkorlik faoliyatini kreditlash sohasida oʻziga xos bulgan inqilobiy oʻzgarishlarni amalga oshirdi. Xususan, uning tashabbusi va taklifi bilan kichik biznes subʼekklarini guruh javobgarligi asosida kreditlash shakli, garovsiz kreditlash turi “Grameen Bank” amaliyotiga joriy etildi. M.Yunusning fikriga koʻra, endi ish boshlayotgan kichik biznes subʼekklarini kreditlashda asosiy eʼtibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subʼekklarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan soʻng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga boʻlgan talabning oshishiga sababchi boʻladilar. “Grameen Bank” ning tadbirkorlik

sub'ektlarini kreditlash usullari va ularni O'zbekiston bank tizimidagi mavjud taraflari xususida qo'yidagilarni keltirish mumkin:

1. "Grameen Bank" kreditni inson xuquqi sifatida targ'ib qiladi.

Mamlakatimizda ham bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2- maydagi O'RQ-328- son Tadbirkorlik faoliyatini erkinligining kafolatlari to'g'risidagi Qonunning 16- moddasiga ko'ra " Tadbirkorlik sub'ektlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda imtiyozli kreditlash huquqiga ega" ekanligi belgilangan. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun bu juda qulaydir.

2. "Grameen Bank" ning oldiga quygan asosiy vazifasi kambag'al oilalarga qashshoqlikni engishga yordam berishdir.

"Grameen Bank" kambag'allarga, ayollarga, savodsizlarga, pulni qanday qilib sarmoya qilishni va daromad olishni bilmasliklarini so'rab murojaat qilgan kishilarga kredit beradi.

3. "Grameen Bank" kreditining eng muhim xususiyati shundaki, u hech qanday kafolatga yoki yuridik jihatdan majburiy bo'lmagan shartnomalarga asoslanmaydi.

4. "Grameen Bank" mijozlarni to'lovga qobilligiga ko'ra ikki guruhga, ya'ni kredit to'loviga layoqatliligi yuqori bo'lgin va kredit layoqatliligi past bo'lgan mijozlarga ajratiladi.

Bugungi kunda tadbirkorlik sub'ektlarini kredit olishdagi muammolarin ikki guruhga bo'lish mumkin: ichki va tashqi.

Kredit olishdagi tashqi muammolar:

a).Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga ajratiladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari yuqoriligi natijasida tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash yuqori risk darajasiga egaligi bilan izohlanadi.

b) kreditni so'ndirish muddati qisqaligi;

d) kredit olish jarayoni murakkabligi.

Kredit olishni qiyinlashtiruvchi ichki muammolar:

a) tadbirkorlik sub'ektlari uchun taklif qilinayotgan kreditlarning cheklanganligi;

b) tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashda raqobat bozorining etarli darajada rivojlanmaganligi;

d) faoliyatning miqyosi kichikligi, uning holatini baholash qiyinligi;

ye) kredit olish uchun biznes-reja tayyorlash sifati va boshqalar.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlik muhim o'rin tutadi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 2022-yilning 9 oyi davomida 150 mingdan ortiq loyixaga jami 4,4 trln. so'm imtiyozli kredit mablag'lari ajratilganligi mamlakatimizda tadbirkorlarga katta e'tibor berilayotganligidan dalolat.

Ajratilayotgan kreditlarning 78 foizi yoki 3,5 trln.so'mi "Har bir oila-tadbirkor" davlat dasturi asosida, 22 foizi yoki 980,0 mlrd.so'mni boshqa dasturlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mablag'larning 1 trln.213 mlrd. So'mi xotin-qizlar tadbirkorligini, 1 trln.385 mlrd. So'm miqdori esa yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga ajratilgan.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda respublikamizda yirik 3ta bank hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, eng katta ulushni, ya'ni 46 foizni Agrobank hissasiga to'g'ri kelsa, 34 foizi Xalq banki va 26 foizi Mikrokreditbankka tegishli.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil natijalaridan kelib chiqib qo'yidagi xulosa va takliflarni shakllantirish mumkin.

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilayotgan imtiyozlarni tabaqalashtirish orqali yanada qulayliklar yaratib berish va ularni rag'batlantirib borish korxonalar kengayishiga zamin yaratadi;

Respublika aholisini yanada rag'batlantirish va o'z bisneslarini tashkil etishda intilishini ko'chaytirish maqsadida kredit foizini pasaytirish lozim;

Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning foiz stavkalari bilan iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalar rentabellik ko'rsatkichlaridan ancha yuqori, xususan, qishloq xo'jalik va sanoat tarmoqlarida.

Tijorat banklari xalqaro tajribalardan keng foydalanib kreditlash tizimini takomillashtirish zarur.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4862-son “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qorori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 –yil 20-fevraldagi PF-3968-son “Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlari liberallashtirish hamda kafotlarini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Muxammad Yunus, Alan Joli. Sozdavaya mir bez bednosti: sotsialnyy biznes i buduŭee kapitalizma. Per.s angl.-M.Alpina Pabliŕherz, 2010.-S.307.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. Uzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.- Toshkent, 2017.-№6(766).-32-b